

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | | |
|--|--|------|
| L.T.Galimullina | Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language | 1213 |
| A.O.Oxunov | Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi | 1217 |
| M.U.Mamadjanova | Linguocultural features of the epithets | 1221 |
| M.U.Mamadjanova | Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar | 1224 |
| M.M.Umaralieva | The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs | 1227 |
| Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov | Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili | 1232 |
| Sh.Z.Xolmatov | So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida | 1236 |
| M.M.Umaralieva | A proficient approach to self-directed learning | 1241 |
| Sh.F.Latipov | Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity | 1246 |
| Sh.F.Latipov | Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar | 1249 |
| A.A.Qosimov | Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics | 1252 |
| A.A.Qosimov | A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language | 1258 |
| M.G'.Zaylobidinova | Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish | 1264 |
| Д.Ш.Ибрагимова | Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей | 1268 |
| Д.Ш.Ибрагимова | Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций | 1272 |
| Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов | Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов | 1278 |
| M.N.Abdulimova | Theory of cognitive and conceptual metaphors | 1282 |
| M.N.Abdulimova | Analysis of metaphors used in political texts | 1286 |
| S.O'.Shermamatova | Analyses of J.D.Salinger's works | 1291 |
| X.Zikiryoxonovna | Falsafiy-psixologik romanda tush motivi | 1295 |
| X.Z.Umarova | Maktublar – qahramon qalb oynasi | 1298 |
| Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov | Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills | 1301 |
| S.S.Usmanova | Jadidchilik va adabiy muhit xususida | 1304 |
| V.Abdurakhmanov | Classification and description of the main alternative issues in social life | 1307 |
| R.M.Turdimatova | The intricacies of irony: types and examples | 1311 |



UO'K: 801.612.2

SO'Z URG'USINING NAZARIY TAVSIFI VA AHAMIYATI QIYOSIY ASPEKTDI

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СЛОВЕСНОГО УДАРЕНИЯ В СРАВНИТЕЛЬНОМ АСПЕКТЕ

THEORETICAL DESCRIPTION AND IMPORTANCE OF WORD STRESS IN COMPARATIVE ASPECT

Xolmatov Shaxriyor Zoxidjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada so'z urg'usi va unga berilgan ta'riflar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari atroflicha tahlil qilinadi. So'z urg'usining tildagi ahamiyati asosan ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil qilinadi va turli qarashlarga munosabat bildiriladi. Urg'uning bo'g'in strukturalari bilan qanday bog'lanishi, nutqda qanday aks etishi va bu qanday amalga oshishi nazariy tomondan yoritiladi. So'z urg'usining hosil bo'lishidagi faktorlar asosan rus, ingliz, o'zbek olimlarining qarashlari asosida qiyosiy metodda tadqiq etiladi va bu qarashlar orasidagi tafovut ko'rsatib beriladi. Gap va so'z urg'usining o'zaro aloqador hodisalar ekanligi misollar orqali dalillanadi.

Аннотация

В статье подробно анализируются слово ударение и его определения, их характеристики, сходства и различия. Значение словесного ударения в языке анализируется преимущественно на примере английского и узбекского языков, при этом высказываются различные точки зрения. Как ударение связано со слоговыми структурами, как оно отражается в речи и как реализуется, будет объяснено с теоретической точки зрения. Факторы образования словесного ударения изучаются сравнительным методом на основе взглядов русских, английских и узбекских ученых и показаны различия между этими взглядами. На примерах доказывается, что предложение и словесное ударение – явления взаимосвязанные.

Abstract

In the article, the word stress and its definitions, their characteristics, similarities and differences are analyzed in detail. The importance of word stress in the language is analyzed mainly on the example of English and Uzbek languages, and different views are expressed. How the accent is connected with syllable structures, how it is reflected in the speech and how it is realized will be explained from a theoretical point of view. Factors in the formation of word stress are studied in a comparative method based on the views of Russian, English, and Uzbek scholars, and the differences between these views are shown. It is proved by examples that sentence and word stress are interrelated phenomena.

Kalit so'zlar: supersegment birliklar, aksentema, akustika, fonetik struktura, ovoz chastotasi

Ключевые слова: суперсегментарные единицы, акцентема, акустика, фонетический строй, частота звука

Key words: supersegmental units, accenteme, acoustics, phonetic structure, sound frequency

KIRISH

Tilda har bir sathdagi hech bir hodisa shunchaki mavjud bo'lmaydi. Bu shuni anaglatadiki lisoniy hodisalar doim o'z o'rniga ega bo'lib ular nutqning tushunarligi, ravonligi, to'liqligi va bayon etilishiga u yoki bu darajada ta'sir etadi. Ushbu voqeliklar ayniqsa nutqning fonetik va fonologik xususiyatlarida yaqqol aks etadi. Nutqning segment birliklar qatori uning supersegment birliklari ham mavjud bo'lib aynan ular tildagi eng muhim vositalardan intonatsiya, urg'u, tembr, pauza, ritm kabi komponentlardan tashkil topadi. Ushbu keltirilgan vositalar ichida urg'u ahamiyati, qolgan til hodisalariga bog'liqligi va ularning paydo bo'lishidagi ko'magi nuqtai nazaridan bir qator tillarda xususan ingliz va o'zbek tillarida ahamiyatli va uni tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, leksik urg'u va uning tabiati paydo bo'lishi va unda ishtirok etadigan omillar uzoq yillar davomida tilshunos olimlarni qiziqtirib kelgan va ular tomonidan berilgan xulosalar o'rinli va ayrim nuqtalarda baxslidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

TILSHUNOSLIK

Leksik urg'uni tahlili va tavsifi uni laboratoriya sharoitida tadqiq etish o'tgan asrning 60-yillardan boshlandi desak ham bo'ladi. Ularda so'z urg'usi yoki aksentemaga olimlar tomonidan turli ta'riflar berildi. B. A. Bogorodskiyning ta'rif berishicha, urg'u artikulyatsion va nafas olish bilan bog'li energiyaning ko'tarilish yoki pasayishi bilan karakterlanadi. D. Jovns fikricha, urg'uni kuchli zarb yordamida nafas chiqarilganda hosil bo'ladigan tovush balandligi bilan bog'liq zarbning darajasi sifatida ta'rif beradi. H.Svit ham urg'u aynan chiqarilayotgan nafas kuchi bilan bog'liq degan qarashga qo'shiladi. [15:173] Ingliz tilshunoslaridan yana biri A.Gimsonning ta'kidlashicha, urg'u olgan bo'g'in aynan shu so'zdagi boshqa bir urg'u olmagan bo'g'inlardan yuqoriroq nafas kuchi va muskullarning energiya sarf etishi bilan izohlanadi.[8;128] D.Kristal urg'uga fonetik tavsif berishicha, urg'u bog'inni hosil qilishdagi zarbning darajasini ifodalaydi.[6;454] Pouldaufning fikricha, so'z urg'usi so'zdagi (leksik birlik, leksemadagi) zarb avji yoki avjlarining mavjud bo'g'inlarni inobatga olgan holda so'zdagi boshqa bir zarb avji yoki avjlariga qarama-qarshi qo'yishdir.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, urg'u bo'g'indagi unliga bog'liq hodisa bo'lib, leksik urg'u bo'g'indagi unliga tushadi. Urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni ajratishda unli tovush dominant xarakterga egadir.[16;24] Shunga qaramay, barcha olimlar ham bu fikrni to'liq ma'qullagan emas. Ba'zi adabiyotlarda ko'rsatilishicha, urg'u aynan bo'g'indagi unlini emas, balki butun bir bo'g'inni qolganlardan ajratib turishiga ko'maklashadi. [5;43] Aynan shuning uchun ham urg'u segment birlik sifatida qabul qilingan fonemadan ajralib turadi.

K.Kreidlerning ta'kidlashicha, unli tilda o'z ahamiyatiga ega tovushlardir. Unlining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning urg'u va tovushning asosiy tonini o'zi bilan birga olib yurishidir, albatta, so'z tarkibida, bo'g'inda.[10;48]

NATIJA VA MUHOKAMA

Leksik urg'uni qanday hosil bo'lishini aniqlash maqsadida o'tkazilgan qator tajribalar shuni ko'rsatdiki, urg'uli bo'g'inni anglash uchun tovushning asosan unli tovushning turli xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Sababi bo'g'inlarning xosil bo'lishi unli tovushlar bilan chambarchas bog'liqdir. So'z urg'usi bu so'zdagi ma'lum bir unlining (yoki bo'g'inning) cho'ziqroq, ajratib ta'kidlab aytilishidir. Payqab olish nuqtai nazaridan barcha urg'uli bo'g'inlarning umumiy belgisi bu qolgan urg'usiz bo'g'inlardan yaqqol ajralib turishidir. Mana shu yaqqollik uchun esa kamida to'rtta omil muhimdir.

1) Ko'pgina odamlar urg'uni qolgan bo'g'inlarga nisbatan balandroq aytilgan bo'g'inda his etadilar. Lekin faqatgina bo'g'inni balandroq aytish bilan uning yaqqolligini muayyan belgilab bo'lmaydi.

2) Bo'g'inlar uzunligi ham ajralib turish uchun ahamiyatlidir. Masalan, ma'nosiz so'zning tarkibidagi 1 bo'g'in urg'uli bo'lsa, u qolganlariga qaraganda uzunroq / ta:ta:ta:ta:/ talaffuz qilinadi.

3) Har bir bo'g'in past yoki yuqori ohang darajasiga egadir; nutqda tovushning toni un paychalarining titrashi bilan bog'liq bo'lib, musiqa tili bilan aytganda yuqori va quyi notalar demakdir. Demak yuqori tonga ega bo'lgan bo'g'inlar urg'uli, qolgan quyi tondagi bo'g'inlar esa urg'usiz sifatida qabul qilinadi.

4) Bo'g'inning urg'u olishiga ta'sir ko'rsatuvchi keyingi omil bu uning tarkibidagi qo'shni bo'g'inlardagi unilardan farqliroq unliga bog'liqdir. Agar biz o'sha ma'nosiz so'zdagi 1ta unlini o'zgartirsak /ta:ti:ta:ta:/ aynan o'sha bo'g'in urg'u olgandek eshitiladi. Bunday ta'sir yuqoridagilarga nisbatan kuchli yoki muhim bo'lmasada unilarning kuchli yoki kuchsiz ekaniga aniqlik kiritishda foydalidir.

Yaqqollik, demak, to'rt muhim omil tovushning balandligi, uzunligi, tovushning yuqori toni va xususiyatlari (tipik ottenkasi) doirasida vujudga keladi. Umuman olganda har to'rttala omil ham bir paytda amalga oshsada ba'zan ulardan faqat bir yoki ikkitasi faol bo'lishi ham mumkin.[13;74]

Professor Abduazizov urg'uning fonetik komponentlarini quyidagicha tasniflaydi:[3;124]

a) Nutq organlarining harakatiga ko'ra. Ya'ni urg'u bo'g'iz faoliyati va nafas olish sezilarli darajada kuchaytirilishi va un paychalari titrashining yuqori chastotali artikulyatsiyasi davomiyligi bilan karakterlanadi.

b) Akustika nuqtai nazaridan urg'u olgan bo'g'in boshqa urg'u olmagan bo'g'inlarga qaraganda yuqoriroq intensivlikka va yuqori tovush toni, davomiylikka ega bo'ladi.

c) Anglash doirasida esa urg'u olgan bo'g'in urg'ulantirolmagan bo'g'inlarga qaraganda balandligi davomiyligi va tovushning yuqori toni bilan belgilanadi.

So'z urg'usidan foydalanish bu faqatgina tovushning davomiyligi va tonning yuqori yoki quyi darajasi orqali ularni bo'g'inlarga ajratish uchun emas, fonetika nuqtai nazaridan til sturukturasida prosodik bog'liqlik asosida so'zni shakllantirish demakdir.[1;45]

Ta'kidlab o'tilganidek, urg'u so'zning hosil qiluvchi xususiyatlaridan biridir. Har qanday so'z bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli bo'lishidan qat'iy nazar u albatta o'zining urg'usiga ega bo'ladi.[3;136] Urg'uning hosil qilish funksiyasi so'zlarni fonetik jihatdan shakllantiradi, ya'ni hajm, zarb va tovushning asosiy toni yordamida urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni artikulyatsion vositalar yordamida tovush ketma ketligida birlashtiradi. So'zning aksentual-ritmik strukturasi bo'g'in strukturasi, fonemelarning bog'lanishi asosida hosil bo'ladigan so'zning fonemik strukturasi va fonetik strukturasi tarkibiy elementi hisoblanadi. So'z fonetik strukturasi bu uch komponenti aksentual ritmik struktura doirasida birlashadi, natijada semantik va lingvistik birlik sifatida qo'llash mumkin bo'lgan so'z hosil bo'ladi.

D.B.Frayning ta'kidlashicha, urg'uning farqlari tinglovchi tomonidan murakkab to'rtta o'zaro bog'langan fiziologik o'lchovlar bilan idrok etiladi; cho'ziqlik, balandlik, ingichka-yug'onlik va yuqori tonda ekanligi.[7;126-128] Jismoniy va aqliy omillar o'zaro bog'liqdir: davomiylik, zarb, asosiy chastota va va nutq tovush to'lqinlarining shakllantiruvchi strukturasi. Ingliz urg'usini idrok etishdan kelib chiqsak, bir necha omillar bunga ta'sir ko'rsatadi: 1)bo'g'inning cho'ziqligi, 2)bo'g'inlarning balandligi 3)bo'g'inlardagi unli mavjud zarb 4)bo'g'inlarda asosiy tovush tonining mavjudligi 5) kinasetik xotiralar o'zi yaratayotgan bo'g'inni qabul qilish bilan bog'liqdir. Turli asboblar orqali o'tkazilgan tekshiruvlar shuni isbotladiki, urg'u olgan bo'g'indagi unli yuqori chastotaga, zarbga, yug'onlikka va urg'usiz so'zlardagi unliga qaraganda ko'proq davomiylikka ega bo'ladi.

O'zbek tilidagi urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni farqlashda uchta xususiyat muhim ahamiyatga egadir.[12;4] Birinchidan urg'uli bo'g'in qolgan bo'g'inlarga qaraganda cho'ziq o'qiladi, ikkinchidan urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'indan ko'ra aniqroq talaffuz qilinadi, uchinchidan urg'uli bo'g'in boshqa bir urg'usiz bo'g'indan ko'ra balanroq ovozda aytiladi. Masalan *dala*, *paxta*, *ona* so'zlarining oxirgi ikkinchi bo'g'inlari birinchi bo'g'inga qaraganda cho'ziq, aniq va baland ovozda aytiladi.

Fonetik va fonologik tabiatiga ko'ra ingliz tili urg'usi o'zbek tili so'z urg'usiga qaraganda murakkab jarayon hisoblanadi va o'z o'rnida tildagi ahamiyati ham yuqoriroq darajaga egadir. D.Kristal va Gimson ham bu fikrga qo'shilgan holda ingliz tili so'z urg'usi amalga oshirilishi mushkul bo'lgan jarayon deb ta'rif berganlar.[17;69] Sababi mavjud ilmiy tadqiqotlarda urg'uga ta'riflar va yondashuvlar o'rtasida o'xshashliklar bo'lsada, ba'zan qarama-qarshi fikrlarga ham duch kelamiz. Masalan, Vrabelning fikricha ingliz tilida faqat ma'noli(mustaqil so'zlar) so'zlargina so'z urg'usi olishi mumkin va aksincha artiklar urg'u olmaydi. Ba'zi adabiyotlarda taklif qilinishicha artiklar ham, predloglar ham qaysidir ma'noda potensial (ehtimoliy) urg'uga egadir.[5;45-47] Shuning uchun ingliz tili urg'usi haqidagi barcha manbalarda bir nechta istisnolar ko'zga tashlanadi. O'zbek tili so'z urg'usi esa ingliz tili so'z urg'usidan farqli ravishda umumiy normalar bilan xarakterlanadi. Balki shuning uchun o'zbek tili fonologiyasiga va fonetikasiga doir manbalarda so'z urg'usi va uning alohida xususiyatlari haqida mualliflar o'ta qisqa ma'lumotlarni keltiradilar.

So'z urg'usi gap urg'usi bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Negaki, so'z urg'usi va gap urg'usining chegaralash vazifasi doirasida har ikkovi ham nazariy va amaliy nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Gap urg'usi odatda so'zdagi eng kerakli bo'g'inga so'z urg'usi belgilagan bo'g'inga tushadi. Shuning uchun ot, aniqlashtiruvchi so'zlarning aksentual strukturasi so'z birikmasidagi urg'uning tartibidir. Bir vaqtning o'zida so'z birikmasining urg'u qolipi semantik va sintaktik omillar orqali shakllantiriladi. So'z birikmasi tarkibidagi doim urg'uli bo'ladigan so'zlar atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlardir. Ular so'z birikmasidagi asosiy tushunchani ifodalaydi, shunday ekan, gapdagi muayyan semantik ahamiyatga ega har qanday so'z gap urg'usini olishi mumkin.[3;126]

Shuni inobatga olish lozimki, so'z urg'usi va gap urg'usini aynan bir xil jarayon deb tasvirlab ham bo'lmaydi. So'z urg'usi so'zdagi bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib ko'rsatsa, gap urg'usi gapdagi bir yoki undan ortiq so'zlar yoki iborani ta'kidlab keladi. Shuning uchun ham gap urg'usi intonatsiyaning muhim komponenti hisoblanadi. Urg'uning bu ikki turi turli darajadagi tadqiqotlarda ularning omillari, vazifalari va komponentlari turlicha bo'lganligi sababli ba'zan aralash holda

TILSHUNOSLIK

qo'llaniladi. Masalan: **can** so'zi ko'pincha urg'u olmaydi, ammo mana bu kabi ba'zi holatlarda urg'u olishi ham mumkin; **Now you can see it. Can you see it? I can.** Ingliz tili so'z urg'usi ba'zan jumla yoki gap ichida ham o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qoladi va gap ohangining yuqori yoki quyi darajaga ega bo'lishiga ta'sir qiladi. Balki shu sababli ham ba'zi tilshunoslar so'z urg'usi va gap urg'usini bir-biridan ajratmagan holda o'rganishadi.

Fonologik aspektda leksik urg'u (shu o'rinda urg'u farqlovchi urg'u deb ham nomlangan) ma'no farqlash xususiyatiga egadir.[6;455] Bunday holat ko'p tillarda, xususan, ingliz va o'zbek tillarida ham mavjuddir: 1) *There has been a significant increase in the number young people who smoke.* 2) *The population may increase by 15 percent.* Keltirilgan gaplardagi **increase** so'zi dastlab ot [Inkri:s], keyingi gapda esa fe'l [In'kri:s] vazifasini bajaryapti. O'zbek tilida **olma** (meva), **olma** (fe'lning bo'lishsiz shakli). Bir xil tovush ketma-ketligiga ega bo'lgan so'z birikmalari va qo'shma so'zlar so'zlarni ajratib olish uchun leksik urg'udan foydalanamiz: *'black 'bird* (qora qush, har qanday qora qush(so'z birikmasi)), *'black-bird* (asosan Yevropa va Shimoliy Amerikada uchraydigan qush turi (qo'shma so'z)). Kontekstdan tashqarida bunday so'zlarni faqatgina urg'u yordamida farqlashimiz mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, so'z urg'usi so'z bo'g'inlardan biriga tushib uning ma'no va talaffuzini belgilab beradi. So'z urg'usi leksik urg'u, lug'aviy urg'u deb ham yuritiladi. Har qanday tildagi fonetik hodisalar, xususan, urg'u ham o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, u tillarda muayyan funksiyalarni bajaradi. Dunyoning barcha tillari ham so'z urg'usiga ega emas. Faqatgina muayyan tillargina leksik urg'uga egadir. Tilshunoslar urg'u konseptiga turli tomondan yondashgan bo'lsalarda ularning qarashlari va olib borishgan tadqiqot natijalari urg'uni to'liqroq tushunib olishga yordam beradi. Leksik urg'u supersegment birlik sifatida ingliz va o'zbek tilida o'ziga xos ahamiyatga va turlicha artikulyatsion va akustik xususiyatlarga ega bo'lgan fonetik hodisa bo'lib, uni hosil qilishda tovushning asosiy toni, zarb, tovushning yuqori chastotasi, cho'ziqlik (davomiylik) kabi omillar ishtirok etadi. Keltirilgan omillarning ba'zan bir yoki ikkitasi qolganlariga qaraganda ustun bo'lishi mumkin. Urg'uni fonetik tabiatiga ko'ra tasniflash tillardagi leksik urg'uni hosil qilishdagi dominant omilni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Ingliz va o'zbek tilida zarb qolgan faktorlarga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega bo'lganligi sababli biz har ikkala tilni dinamik urg'uli tillar oilasiga mansub deb hisoblaymiz. Ingliz tili erkin urg'uli tillar oilasiga mansub bo'lib, bu tildagi mavjud urg'u normalari umumiy qoidalarni rad etadi va urg'uning doim bir bo'g'inda bo'lishi mumkin emas. Zid ravishda, o'zbek tilida urg'u asosan so'zning ohirgi bo'g'iniga tushadi, shunga qaramay ayrim til xodisalari, olinma so'z va qo'shimchalar tufayli ba'zan urg'u oxiridan oldingi bo'g'inlarda ham bo'lishi mumkin. Ingliz tilidagi leksik urg'uning o'rnini aniqlash murakkab jarayon bo'lib, olimlar o'rtasida ham turlicha bahs munozaralarga sabab bo'lgan. Ayni zamonaviy ingliz tilida paytda urg'uni o'rnini aniqlashga yordam beradigan resessiv, retentiv, ritmik kabi uchta tendensiya mavjuddir. Ammo bu tendensiyalardagi istisnolarning ko'pligi tufayli ular har doim ham samara beravermaydi. Shuning uchun so'zlarning morfologik jihatdan tuzilishi, bo'g'inlar soni, bo'g'inlarning fonologik strukturasi, so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligi inobatga olgan holda urg'uning o'rnini aniqlash oson va qulay. Lekin bu usulda urg'u qo'yish ham ba'zi istisno holatlarni bilib olishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1981.
2. Соколова М, Гинтовт К, Тихонова И, Тихонова Р. English Phonetics. A Theoretical Course. М.:Высшая школа, 1991.
3. Abduazizov A. Theoretical Phonetics Of Modern English. – Tashkent: "Ўқитувчи", 1986.
4. Anne C. ERRORS OF STRESS AND INTONATION. Laboratory of Experimental Psychology. University of Sussex. –Brighton, England. 1980.
5. Claire-A. Forel & Genevieve P, Updated by Comelia H and Carmen S. PHONETICS AND PHONOLOGY University of Oldenburg. 2005.
6. Crystal D. A dictionary of linguistics and phonetics. Sixth edition. – Oxford: Blackwell publishing, 2008.
7. Fry D. 1958. Language and speech Vol. 1: Experiments in the Perception of Stress.
8. Gimson A. An introduction to the Pronunciation of English. – London, 1962.
9. Jalilov S. Hozirgi o'zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). – Nukus, 2011.
10. Kreidler C. Pronunciation of English. A course book. Second edition. –Oxford: Blackwell publishing, 2004.
11. Leontyeva S. A theoretical course of English phonetics. – Moscow: 1980. VYSSAJA SKOLA.

12. Muhammadov E. So'z urg'usi // Imtixon. 2016. № 6.
13. Roach P. English phonetics and phonology. A practical course second edition. – Cambridge: Cambridge University press, 1991.
14. Roach P. English phonetics and phonology. A practical course fourth edition. – Cambridge: Cambridge University press, 2009.
15. Sweet H. A primer of phonetics. – Oxford.: 1929.
16. Turniyozov N, Rahimov A. O'zbek tili. (1 qism) – Samarqand: 2006.
17. Vrabel T. LECTURES IN THEORETICAL PHONETICS OF THE ENGLISH LANGUAGE AND METHOD-GUIDES FOR SEMINARS. Poli print. Ungvár: 2009